

IJTIMOIY HAYOTIDA FUQAROLIK KOMPETENSIYASINING STRUKTURALARINI
YARATUVCHI KOMPONENTLAR.


Rasulova Nozigul Abduvaxid qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Magistrant talabasi

Anotatsiya: ushbu maqolada hayotda talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik kompotensiyasini rivojlantirish tushunchasini asosiy komponentlari insonda ma'lum sohada hayotiy muvaffaqiyatga erishishga ko'maklashuvchi, unga muvaffaqiyatga erishish yo'lida samarali harakat qilishga imkon beruvchi, ma'lum ob'yektiv talablarga moslik asosida rivojlanish muhim ahamiyatli tomonlari bo'lgan kongnitiv, faoliyatli(opratsional), aksiologik komponentlar orqali shaklanishini yoritib izohlab berishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kongnitiv komponent, faoliyatli(opratsional) komponent, aksiologik komponent, shaxsiy komponent, kompetensiyaviy bilimlar.

Kompetensiya tushunchasining mezonlari sifatida inson, ma'lum sohada hayotiy muvaffaqiyatga erishishga ko'maklashuvchi, unga muvaffaqiyatga erishish yo'lida samarali harakat qilishga imkon beruvchi, ma'lum ob'yektiv talablarga moslik asosida rivojlanish muhim ahamiyat kasb etadi.

E.V.Barishnikova[4], B.A.Ozerova[7], A.M.Knyazev[6], V.P.Gurova[5] va boshqalarning kompetensiyaviy yondashuvga oid tadqiqotlari tajribasiga tayanib, biz ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiylarini uch guruhga ajratib ko'rsatish oraqlari ifodalash mumkin deb hisoblaymiz.



Kognitiv blok bilimlar va ularni egallash usullari bilan bog'liq bo'lib. Bular avvalo quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jamiyat va uning tuzilishi to'g'risidagi bilimlar: ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, tarixiy, madaniyatshunoslik va h.k.;
- iqtisodiy savodxonlik, zamonaviy iqtisodiy tizimlar amal qilish prinsiplarini bilish, bozor iqtisodiyotiga asoslangan bilimlar;
- davlat, siyosiy tizimi, inson huquqlari, saylovlari, ijtimoiy yo'nalishlar va barcha darajalarda inson huquqlarini himoyalash mexanizmlari, ijtimoiy loyihalash asoslari to'g'risidagi bilimlar;
- asosiy ma'naviy kategoriyalarni bilish ("ezgulik"-“yovuzlik”, “insonparvarlik”-“shafqatsizlik”, “jo'mardlik” va boshqalar).


Faoliyatli (operasional) komponent o‘z ichiga ko‘p millatli jamiyat hayoti uchun zarur bo‘lgan, ko‘nikma va malakalarning majmuini kiritib, u demokratik prinsiplarga asoslanadi:

- ijtimoiy faol fuqarolik faoliyatiga talluqli turli ijtimoiy rollarni bajarishga tayyorlik: saylovchi, iste’molchi, oila a’zosi, qo’shni, talaba, hamkasb, ijtimoiy va siyosiy arbob, sud jarayoni ishtirokchisi, rahbar yoki jamoa a’zosi roli va h.k;
- ijtimoiy tanlov va ijtimoiy hatti-harakat kompetensiyalari, ijtimoiy faol fuqarolarni jamiyat hayotida ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan o‘z huquqlari va majburiyatlarini bajarish bo‘yicha malakalar, siyosiy va faol fuqarolik malakalari, siyosiy vaziyatni tahlil qilish ko‘nikmasi, demokratik, protseduralarga egalik, o‘z huquqlaridan foydalanish va himoyalanishni bilishi va jamoat ishlarida motivli faollikni namoyon etgan holda (jamoat tashkilotlarida, o‘z-o‘zini boshqarishda va h.k.), ijtimoiy loyihalashda ishtirok etishi kerak;
- kommunikativ madaniyat–muloqotning demokratik uslubi, avtoritarizmdan voz kechish, o‘z g’oyalarini tushunarli va asosli ifodalashni, o‘quv-tarbiya jarayonida o‘z fikrlarini mustaqil bayon eta olishi, munozara olib borish, dialogga kirishish, o‘z pozitsiyasini aniqlash va asoslash, demokratiyaga, konyukturaga, bosimga qarshi chiqishni bilish;
- tanqidiy fikrlash–ma’lumotni tahlil qilish, baholash, umumlashtirish va tizimlashtirish, turli-tuman ma’lumotlar asosida kompetentli xulosalar chiqarish qobiliyati;
- shaxsiy, kasbiy moyillik va imkoniyatlarning tahlili, bozor munosabatlari, mehnat qonunchiligi sohasini tushunish, mehnatni tashkil etish malakalarini egallash, mehnat va jamoaviy etika me’yorlarini bilish.

Aksiologik komponent ma’nosi aksiologik prinsiplar tizimi orqali ochib berilishi mumkin, ular quydagilarni o‘z ichiga oladi:

- madaniy va etnik xususiyatlarining xilma-xilligini saqlab qolgan holda, qadriyatlarning yagona gumanistik tizimi doirasida falsafiy qarashlarning tengligi;
- an'analar va bunyodkorlikning tengligi, o’tmisht ta’limotlarini o‘rganish va ulardan foydalanish zarurati hamda bugungi va kelajakda ma’naviy kashfiyotlar imkoniyatlarini e’tirof etish, an'anachilar va innovatorlar o’rtasidagi o‘zaro boyitish;
- odamlarning ekzistensial tengligi, qadriyatlар asoslari haqidagi demagogik bahslar o‘rniga sotsial-madaniy pragmatizm, messianizm va loqaydlik o‘rniga dialog va asketizm tamoili asosida yoritib beriladi.

S.A.Ozerova jamiyatning ijtimoiy hayotida fuqarolik kompetensiyasini 3 ta asosiy strukturaviy komponetlardan tashkil topadi deb hisoblaydi



1.1-rasm. S.A.Ozerova fikricha ijtimoiy hayotida fuqarolik kompetensiyasining strukturalari

⊕ **kognitiv**, bilimlar va ularni egallash usullari bilan bog'liq. Bunga inson, shaxs, sivilizasiya, madaniyat, fuqaro, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, konstitutsiya, huquq va erkinliklar va boshqalar kiradi.

⊕ **faoliyatli** komponent egallangan bilimlar va mazkur ko'nikmalarni amalgaloshirish usullari asosida shakllanishi bilan belgilanadi. Faoliyatli komponent o'z ichiga ijtimoiy tanlov, ijtimoiy hatti-harakat, kommunikativ kompetensiyalarni kiritadi. Mazkur komponent fuqarolikning muayyan ko'nikma va malakalarga egaligini ko'zda tutadi (tangidiy fikrlar, fuqarolik majburiyatlarini bajarish, siyosiy vaziyatni tahlil qilish, boshqa insonlar bilan hamkorlik qilish, fuqarolik bilimlari va demokratik protseduralarni egallaganlik, o'z huquqlaridan foydalanish va ularni himoyalashni bilish).

⊕ **shaxsiy** komponenti (motivasion-qadriyatli) tashkil etuvchi, shaxsning o'z kompetensiyalarini amalgaloshirishi jarayonida namoyon bo'lувchi uning motivlari va qadriyatlar rivojlanishini aks ettiradi: fuqarolik qadriyatlariga (boshqalarning huquqlariga hurmat, tolerantlik, millatlararo totuvlik va boshqalar), shuningdek ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etish, o'z hayotiy fuqarolik pozitsiyasiga egalik istagi kabi sifatlar orqali namoyon bo'ladi[7].

Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish muayyan g'oyalar, diniy e'tiqod, faol fuqarolik pozitsiyasi, axloqiy va fuqarolik qadriyatlarini (milliy va umumbashariy madaniyatining asosiy qadriyatlarini hurmat qilish) egallash. An'anaviy qadriyatlar vatanparvarlik, o'z xalqiga xizmat qilish, insonparvarlik, moddiy-pragmatikka nisbatan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ustunligi, inson huquqlari, dinlararo bag'rikenglik va boshqa ahloqiy sifatlar orqali rivojlanishda namoyon bo'ladi.

Aksiologik – qadriyatli yo'nalganlik bo'yicha talabandan analitik, tashkiliy, ijtimoiy tashabbuskorlikka doir, tahliliy-nazariy bosqichlari asosida talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish imkonini berdi.

I.A.Zimnyaya[3; 42-b.] o'z tadqiqotida fuqaroning ijtimoiy kompetensiya strukturasini taklif etgan bo'lib, unga quyidagi beshta komponentlarni kiritgan:

- kompetensiysi amalga oshirishga tayyorlik;
- kompetensiyaga nisbatan bilimlar;
- kompetensiya va uni amalga oshirishga nisbatan munosabat;
- kompetensiysi amalga oshirish tajribasi;
- kompetensiysi amalga oshirishni tartibga solish kabi komponentlarni keltirib o'tgan[3].

Talabalar ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishda intellektual bilimsalohiyat, avvalo kreativ yondashuv asosida, bilim va tafakkuri, o'z ijtimoiy faolligiga munosabatni tubdan o'zgartirishi lozim.

Ta'lism-tarbiya sohasida sifat – samaradorligiga erishish, ayniqsa, professor – o'qituvchi va talabalarning ta'limiyl ijtimoiy hamkorligi muhim omil sanaladi. Chunki, ushbu hamkorlik o'quv jarayonini ta'limiyl o'zlashtirishning eng muhim vositasidir.

Sayyoramizning kelajagi, osoyishtaligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi, yoshlarning o'z aqliy salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'rovonlik g'oyasi «virus» tarqalishining oldini olish, keljak yoshlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi har tamonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim[2].

Ushbu fikr ilgari surilgan tashabbuslardan ko'rinish turibdiki, mamlakatimizda yoshlar ta'lism-tarbiyasi, ularning ahloqiy, ma'naviy, huquqiy faolliklari jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifalarda bo'lib bormoqda. Chunki, talablar ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishda ularning barcha ilmiy-ijodiy g'oyalarini o'z tashabbuslari va ijtimoiy faol harakatlarini ommalashtirish vazifasi muhim o'rinn tutadi.

Yuqoridagi barcha ilmiy asoslangan fikrlardan kelib chiqqan holda talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompotensiyasini shakllantirish komponentlari o'zining ahamiyati va o'rni bilan bir birini to'ldirib takomillashtirib boradi. Bu esa o'z navbatida yosh avlodni vatanparvarlik tuyg'ularini yetuk darajada tarkib toptirish uchun muhim dasturi amal bo'lib hizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni // O'RQ- 406-sون
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.–Toshkent: O'zbekiston, 2018.–252 b.
3. Зимняя, И.А. Ключевые компетентности как результативно целевая основа компетентностного подхода в образовании.: авторская версия И.Зимняя. - М.: Издательство: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов 2004. - 37 с
4. Барышникова Э. Формирование гражданской компетентности старшеклассников средствами предметов обществоведческого цикла.: автореф. дисс..

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-2, ISSUE-13 (26-December)**

..к.п.н.// - Смол., 2008 г.

5. Гурова В. Формирование мотивационной компетентности у старшеклассников в учебно-воспитательном процессе: автореф. дисс. к.п.н. // В.П. Гурова. - Калининград, 2004 г. - 167 с.

6. Князев А. Категориально-понятийный педагогический анализ компетентности гражданственности. // - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. 2006 г. - 130 с.

7. Озерова С.А. Формирование гражданской компетентности на уроках общественных дисциплин. М – г 2006.

Internet resurslari

8. <http://www.Lex uz>
9. <http://www.psychology-online.net>
10. <http://www.mediasphera.ru/journals/praktik/1/253/>
11. <http://flogiston.ru/>
12. <http://www.koob.ru>